ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME -12

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 12

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN MASHQLAR TIZIMI

N.Q.Olimova
FarDU o‘qituvchisi (PhD)
R.M.Nazirova
FarDU magistr 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning fikrlash darajasiga ko‘ra uchta asosiy guruhga ajratilgan didaktik mashqlar tizimi (tayyorlov-reproduktiv, konstruktiv-ijodiy, kommunikativ-situativ) va ularni amaliyotda qo‘llash metodikasi yoritilgan. Tajriba-sinov ishlari natijasida taklif etilgan innovatsion mashqlar majmuasining o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirish, nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlash hamda psixolingvistik to‘siqlarni bartaraf etishdagi samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, nutqiy kompetensiya, boshlang‘ich sinf, mashqlar tizimi, tayyorlov-reproduktiv, konstruktiv-ijodiy, kommunikativ-situativ, muloqot muhiti.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы развития речевой компетенции учащихся на уроках чтения и грамотности в начальных классах. В рамках исследования освещена система дидактических упражнений, разделенная на три основные группы в зависимости от уровня мышления учащихся (подготовительно-репродуктивная, конструктивно-творческая,коммуникативно-ситуативная), а также методика их применения на практике. По результатам опытно-экспериментальной работы показана эффективность предложенного комплекса инновационных упражнений в обогащении словарного запаса учащихся, обеспечении логической последовательности речи и преодолении психолингвистических барьеров.

Ключевые слова: читательская грамотность, речевая компетенция, начальные классы, система упражнений, подготовительно-репродуктивная, конструктивно-творческая, коммуникативно-ситуативная, речевая среда.

Abstract. This article analyzes the issues of developing speech competence of primary school students in reading literacy classes. Within the framework of the study, a system of didactic exercises divided into three main groups according to the cognitive levels of students (preparatory-reproductive, constructive-creative, communicative-situational) and the methodology of their practical application are highlighted. Based on the results of the experimental work, the effectiveness of the proposed set of innovative exercises in enriching students' vocabulary,

ensuring the logical consistency of speech, and overcoming psycholinguistic barriers is demonstrated.

Keywords: reading literacy, speech competence, primary school, system of exercises, preparatory-reproductive, constructive-creative, communicative-situational, communication environment.

KIRISH.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta'lim mazmunini loyihalash jarayoni o‘quvchilarda fanga oid universal ko‘nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalasi pedagogik va metodik tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Nutqiy kompetensiya – bu shunchaki lingvistik qoidalar majmuasini o‘zlashtirish emas, balki egallangan til bilimlaridan real muloqot jarayonida, turli ijtimoiy va hayotiy vaziyatlarda pragmatik, ya'ni to‘g‘ri, joyida va samarali foydalana olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu kompetensiyani tizimli shakllantirish darslikdagi badiiy va informativ matnlar ustida ishlash, lug‘at boyligini izchil oshirish hamda o‘quvchini mustaqil, tanqidiy fikrlashga undovchi mashqlar zanjiri orqali va o‘quvchining fikrlash darajasiga ko‘ra uchta asosiy guruhga ajratilgan holda amalga oshiriladi.

Birinchi guruhni **tayyorlov-reproduktiv mashqlar (matnni mantiqiy tushunish va qayta ishlash bosqichi)** tashkil etadi. Mazkur guruhga kiruvchi mashqlar o‘quvchining retseptiv nutqiy faoliyatini hamda xotirada saqlash mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi va keyingi ijodiy nutq uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Bu bosqichda *“Savol mendan, javob matndan”* metodik usuli qo‘llanilib, unda o‘quvchilar matnni o‘qib bo‘lgach, juftliklarda yoki guruhlarda ishlaydilar hamda bir-birlariga matn ichida yashiringan pinhona detallar va sub-faktlar haqida muammoli savollar berishadi. Bu mashq o‘quvchining diqqatni jamlash ko‘nikmasini o‘stiradi va o‘z nutqiy javoblarida aniq faktik materiallardan dalil sifatida foydalana olishni shakllantiradi. Shuningdek, *“Kalit so‘zlar zanjiri”* mashqi orqali o‘quvchilar o‘qilgan matndan eng muhim mantiqiy yukka ega bo‘lgan 5-6 ta tayanch so‘zni ajratib oladilar va faqat shu aniqlangan so‘zlarga tayangan holda matn mazmunini mantiqiy ketma-ketlikda, qisqacha qayta hikoyalab berishadi. Bu mashq o‘quvchida matnni siqish va eng asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatish orqali mantiqiy nutq tuzish ko‘nikmasini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi guruh – **konstruktiv-ijodiy mashqlar (matnga nisbatan shaxsiy-subyektiv munosabat bildirish bosqichi)** bo‘lib, o‘quvchini tayyor qoliplardan chiqib, mustaqil dunyoqarashini namoyon etishga, asardagi voqelikka shaxsiy munosabat bildirishiga va nutqiy mustaqillikka erishishiga yo‘naltiriladi.

ISSN 3030-3907

Ushbu bosqichda *"Muqobil yakun"* variativ mashqidan foydalaniladi; unda o‘quvchilarga o‘qilgan ertak yoki hikoya syujetining kulminatsiya nuqtasidan keyingi yakunini o‘zgartirish vazifasi beriladi va o‘quvchi voqealar rivojiga tayanib, yangicha logik yakun o‘ylab topishi hamda uinti sinf jamoasiga og‘zaki so‘zlab berishi lozim bo‘ladi. Bu usul o‘quvchining ijodiy fikrlashini, faraz qilish qobiliyatini hamda farazlarni nutqda asoslab berish ko‘nikmasini o‘stiradi. Shu bilan birga, *"Qahramonga maktub"* evristik mashqi orqali o‘quvchi asardagi ijobiy yoki salbiy personajga o‘z munosabatini ifodalagan holda og‘zaki murojaat yoki kichik xat matni tayyorlaydi. Ushbu jarayonda u qahramonning xatti-harakatlarini tahlil qiladi, uning xatolarini tanqidiy baholaydi yoki uning ijobiy jihatlariga tasanno aytadi. Mashq o‘quvchining emotsional-ekspressiv nutqini hamda baholovchi mulohaza yuritish kompetensiyasini shakllantiradi.

Uchinchi guruhga **kommunikativ-situativ mashqlar (nutqiy faoliyatni ijtimoiy-hayotiy vaziyatlarga ko‘chirish bosqichi)** kiradi. Mazkur toifa mashqlar nutqiy kompetensiyaning oliy darajasi bo‘lib, o‘quvchini sun’iy akademik muhitdan real muloqot muhitiga olib kiradi va nutqning sotsiolingvistik tabiatini namoyon etadi. Bu bosqichda *"Intervyu"* rolli-didaktik o‘yini orqali sinfda kvazi-professional muloqot muhiti yaratiladi: bir o‘quvchi jurnalist, ikkinchisi esa matn qahramoni rolini o‘z zimmasiga oladi; "jurnalist" qahramonning xatti-harakatlari motivatsiyasi borasida intervyu oladi, "qahramon" esa o‘z obrazi ichiga kirib, matn mazmunidan kelib chiqqan holda argumentatsiyalangan javoblar qaytaradi. Bu mashq dialogik nutqni, spontan fikrlash va nutqiy etiket qoidalarini egallashni ta’minlaydi. Shuningdek, *"Muallif o‘rnida bo‘lsam…"* interaktiv situativ metodida o‘quvchi matnda ko‘tarilgan ijtimoiy-axloqiy muammoni o‘zining qisqa hayotiy tajribasi va kundalik misollar bilan bog‘lagan holda kichik monologik nutq tayyorlaydi. Bu esa refleksiv nutq va interpretatsiya ko‘nikmalarini kompozitsion jihatdan to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan va tajriba-sinov darslarida qo‘llanilgan mazkur mashqlar tizimining samaradorligini aniqlash maqsadida diagnostik ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishida bir qator sifat ko‘rsatkichlari dinamikasi kuzatildi. Birinchidan, o‘quvchilar o‘zlarining passiv lug‘at fondida mavjud bo‘lgan, lekin kundalik hayotda deyarli ishlatmaydigan konnotativ va mavhum ma’noli so‘zlarni turli nutqiy vaziyatlarda kontekstga mos ravishda faol qo‘llay boshladilar va lug‘at boyligining funksional faollashishiga erishildi. Ikkinchidan, og‘zaki nutqda fikrlar chalkashligi va asossiz takrorlar sezilarli darajada kamayib, nutqining mantiqiyligi va sintaktik izchilligi ta’minlandi. Uchinchidan, o‘quvchilarda auditoriya oldida og‘zaki nutq so‘zlash paytida yuzaga keladigan psixologik qo‘rquv va nutqiy rigidlik

ISSN 3030-3907

(taraddudlanish) yo‘qolib, psixolingvistik to‘siqlarning bartaraf etilishi natijasida o‘z shaxsiy nuqtayi nazarini dadil, argumentlar yordamida himoya qilish ko‘nikmasi tarkib topdi. An’anaviy o‘qish darslarida dars vaqtining katta qismi matnni shunchaki mexanik o‘qib berish va o‘qituvchining reproduktiv savollariga bir so‘zli javoblar olishga sarflangan bo‘lsa, biz tavsiya etayotgan innovatsion mashqlar tizimi dars vaqtining 60-70 foizini bevosita o‘quvchilarning jonli muloqotiga, tahliliy fikrlashiga va kollaborativ nutqiy faoliyatiga yo‘naltirish imkonini berdi.

Natijada, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion mashqlar tizimi o‘quvchilarning nafaqat til va nutq ko‘nikmalarini, balki ularning kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvchanligi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur metodik yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol muloqot subyekti sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifodalash, suhbatdosh fikriga hurmat bilan munosabat bildirish hamda muammoli vaziyatlarda kommunikativ yechim topish kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, bunday mashqlar tizimini raqamli ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalash ham muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, interaktiv platformalar, audioertaklar, multimediya taqdimotlari va onlayn rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini yanada oshiradi hamda nutqiy faoliyatni tabiiy va qiziqarli muhitda tashkil etish imkonini beradi. Kelgusida boshlang‘ich ta’limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga oid metodik tizimlarni takomillashtirish, ularni milliy va xalqaro baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-metodik vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Bundan tashqari, nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘qituvchining metodik mahorati va darsni tashkil etish uslubi ham muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun erkin fikr almashish muhitini yaratishi, har bir bolaning individual nutqiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llashi zarur. Ayniqsa, rag‘batlantiruvchi savollar, muammoli vaziyatlar va jamoaviy muhokamalar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ularda tinglash madaniyatini shakllantiradi.

Shuningdek, oila va maktab hamkorligi ham o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Uy sharoitida kitob mutolaasi, ota-onalar bilan muntazam suhbatlar, ertak va hikoyalarni birgalikda tahlil qilish kabi faoliyatlar bolaning lug‘at boyligini kengaytiradi va erkin muloqot qilish malakasini mustahkamlaydi. Shu jihatdan qaraganda, nutqiy kompetensiyani

ISSN 3030-3907

rivojlantirish faqat dars jarayoni bilan cheklanmay, balki uzluksiz pedagogik va ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik yondashuvni talab etadi. Maqolada taklif etilgan uch bosqichli (tayyorlov-reproduktiv, konstruktiv-ijodiy, kommunikativ-situativ) mashqlar tizimi an’anaviy darslardagi mexanik o‘qish qoliplaridan voz kechib, dars vaqtining 60-70 foizini jonli muloqotga yo‘naltirish imkonini beradi.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur metodik tizimni izchil qo‘llash o‘quvchilarning passiv lug‘at boyligini faollashtiradi, nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi va auditoriya oldida gapirish bilan bog‘liq psixolingvistik to‘siqlarni bartaraf etadi. Xulosa qilib aytganda, tizimli modellashtirilgan mashqlar majmuasi o‘quvchini faol muloqot subyektiga aylantirib, ularning kelgusi akademik va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-apreldagi 186-son “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida zamonaviy darsliklar yaratish tartibi to‘g‘risida”gi qarori.
2. Boshlang‘ich ta’limning Milliy o‘quv dasturi. O‘qish savodxonligi, 1-4-sinflar. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 256 b.
4. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturkiyeva X. O‘qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2022. – 144 b.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. – 192 b.
6. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tajalli, 2013. – 180 b.
7. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 316 b.
8. Mullajonova N.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda matn ustida ishlash tizimi // “Pedagogika” ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent, 2023. – № 4. – B. 45-51.

ISSN 3030-3907